

Xidiraliyev K.E.

Guliston davlat universiteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrası dotsenti. g.f.n.

Yo‘lchiyeva N.A.

“Geografiya” ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

O‘ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN DEMOGRAFIK JARAYONLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada demografik jarayonlar mohiyati nazariy jihatdan atroflicha yoritilgan. Shuningdek, demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatga ta’siri o‘rganilgan. O‘z navbatida O‘zbekistonda kechayotgan demografik jarayonlar statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan va mualliflarning xulosalari berilgan.

Kalit so‘zlar. Demografiya, demografik jarayonlar, demografik siyosat, aholi, tug‘ilish, o‘lim, global muammo, prognoz.

Хидиралиев К.Э.

Гулистанский государственный университет
доцент кафедры «Экология и география». к.г.н.

Юлчиева Н.А.

магистрант 1-этапа по направлению «География».

ОСОБЕННОСТИ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ПРОИСХОДЯЩИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье теоретически раскрыта сущность демографических процессов. Также изучалось влияние демографических процессов на социально-экономическое состояние. С другой стороны, на основе статистических данных проанализированы демографические процессы, происходящие в Узбекистане и сделаны выводы авторов.

Ключевые слова. Демография, демографические процессы, демографическая политика, население, рождаемость, смертность, глобальная проблема, прогноз.

Khidiraliyev K.E.

Gulistan State University

Associate Professor of the Department of
Ecology and Geography, PhD in Geography

Yulchiyeva N.A.

1st stage master's student in the direction of "Geography".

FEATURES OF DEMOGRAPHIC PROCESSES OCCURRING IN UZBEKISTAN

Abstract. This article theoretically reveals the essence of demographic processes. The influence of demographic processes on the socio-economic state was also studied. On the other hand, based on statistical data, demographic processes occurring in Uzbekistan were analyzed and the authors' conclusions were made.

Key words. Demography, demographic processes, demographic policy, population, birth rate, mortality, global problem, forecast.

Aholi va u bilan bog'liq muammolar har qanday jamiyatning, davlatning kun tartibidagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Buning asosi demografik jarayonlarga bog'liq. Demografik jarayonlar aholi soni va tarkibini o'zgarishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida inson omiliga, uning takror barpo bo'lishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bizga ma'lumki, **demografiya** (qadimgi yunoncha: $\delta\eta\mu\omicron\varsigma$ -demos-xalq va $\gamma\rho\acute{\alpha}\phi\omega$ -grafiya)-har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangitdan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bogliq holda o'rganadigan fan.

Bugungi kunda ham, demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Mazkur holat davlat miqyosida yuritiladigan demografik siyosat asosida boshqariladi va tashkil etiladi. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog'i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatiga bog'liq bo'ladi. Ushbu doirada qaraydigan bo'lak, aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, turli omillar zaminida ko'payadi. Demografik jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Ko'pchilik davlatlarda demografik ma'lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to'plab boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib, o'z ichiga ushbu masalalarga oid jadval va diagrammali ma'lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini oladi [1].

Yuqoridagi nazariy asos va tahliliy ma'lumotlar asosida qaraydigan bo'lsak, o'zgacha geografik o'rin, hududiy birlikga ega bo'lgan O'zbekistonda, bugungi kunda o'ziga xos demografik jarayonlar kechmoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36799800 kishini tashkil etgan. Absolyut ko'rsatkichlarda-tug'ilganlar-961 962 nafarni, vafot etganlar-172 772 nafarni, tabiiy o'sish-789 190 nafarni tashkil qilgan.

Nisbiy ko'rsatkichlarda, tug'ilish koeffitsiyenti-26,4 ‰ (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 ‰ ga oshgan), vafot etish koeffitsiyenti-4,7 ‰ (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 ‰ ga kamaygan), tabiiy o'sish koeffitsiyenti-21,7 ‰ (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 ‰ ga oshgan).

2024 yilda tirik tug'ilganlar soni 962,0 ming kishini tashkil etdi, shundan o'g'il bolalar soni 498,3 ming kishini, qiz bolalar soni 463,7 ming kishini, tirik tug'ilganlar soni shahar joylarida 480,2 ming kishini, qishloq joylarida 481,8 ming kishini tashkil etdi. Tug'ilishlarni chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi: 1 nafar tug'ilganlar 97,8 ‰ ni, 2 nafar tug'ilganlar 2,1 ‰ ni, 3 nafar va undan ortiq tug'ilganlar 0,1 ‰ ni tashkil etdi.

Tugʻilgan chaqaloqlar otasining yoshi boʻyicha 12,8 % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, 80,3 % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda 6,9 % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga toʻgʻri kelgan. Shuningdek, tugʻilgan chaqaloqlar onasining yoshi boʻyicha 38,1 % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, 60,8 % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda 1,1 % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat boʻlgan.

Hududlar boʻyicha tugʻilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida 30,9 promille, Qashqadaryo viloyatida 28,9 promille, Namangan viloyatida 27,9 promille, eng kam koʻrsatkich Qoraqalpogʻiston Respublikasida 22,1 promille, Buxoro viloyatida 23,0 promille va Toshkent viloyatida 24,2 promilleni tashkil etgan.

Vafot etganlar soni 172,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 95,0 ming kishini, ayollar soni 77,8 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 93,6 ming kishini, qishloq joylarida 79,2 ming kishini tashkil etdi. Oʻlim holatining 61,1 foizi-qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,8 foizi-oʻsimtalardan, 5,5 foizi-nafas olish aʼzolari kasalliklaridan, 4,8 foizi-baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi-ovqat hazm qilish aʼzolari kasalliklaridan, 1,3 foizi-yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 12,4 foizi-boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida 5,2 promille, Qoraqalpogʻiston Respublikasida, Toshkent viloyatida va Sirdaryo viloyatida 5,1 promille, eng kam koʻrsatkich Navoiy viloyatida va Buxoro viloyatida 4,3 promilleni tashkil etgan.

Hududlar boʻyicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatida 8,8 promille, Xorazm viloyatida 8,3 promille, eng past koʻrsatkich Qoraqalpogʻiston Respublikasi 6,8 promille, Toshkent viloyatida 7,0 promilleni tashkil etgan. Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida 2,1 promille, Sirdaryo viloyatida 1,7 promille, Andijon va Toshkent viloyatida 1,6 promille, eng kam koʻrsatkich Qoraqalpogʻiston Respublikasida Qashqadaryo viloyatlarida 1,0 promilleni tashkil etgan.

Jumladan, xorijdan koʻchib kelganlar-2 955 kishi, xorijga koʻchib ketganlar-17 336 kishi, migratsiya saldosi-14 381 kishini tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlar soni-283 808 ta, nikohdan ajralishlar soni-49 198 tani, yaʼni ming aholiga nisbatan nikohlar-7,8 ‰, nikohdan ajralishlar-1,4 ‰ tashkil etgan.

Yuqoridagi maʼlumotlar asosida qaraydigan boʻlsak, 36 799,8 ming kishidan, erkaklar soni 18 525,0 ming kishini (50,3%), ayollar soni 18 274,8 ming kishini (49,7%), shahar aholisi soni 18 768,5 ming kishini (51,0%), qishloq aholisi soni 18 031,3 ming kishini (49,0%) tashkil etgan. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi qatlami-yillar mobaynida oʻziga xos oʻzgarib kelmoqda, 2016 yil-19 257,0 kishini, 2020 yil-19 951,6 kishini, 2024 yil-20 710,9 kishini tashkil etgan.

Oʻzbekiston Respublikasida 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga oʻrtacha zichlik 82,0 kishi toʻgʻri kelgan. Bu esa 2023 yilga nisbatan solishtirilganda 1,8 kishiga ortgan. Hududlar boʻyicha qaraydigan boʻlsak, aholi zichligining eng yuqori koʻrsatkichi Toshkent shahrida 6787,5 kishi, Andijon viloyatida 789,4 kishi, Fargʻona viloyatida 600,8 kishini tashkil etgan boʻlsa, eng past koʻrsatkichlar Navoiy viloyati 9,7 kishi, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 12,0 kishini tashkil etgan [2].

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tahlillariga ko'ra 2035 yilga borib O'zbekiston aholisi 45,6 mln kishidan oshishi kutilmoqda. Bu demografik sig'im, qaysidir ma'noda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Maktablarda qo'shimcha 8,2 million o'quvchi o'rnini yaratish zarur. Shuningdek, ushbu davrgacha aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi har yili 5-5,3 foizga oshishi mumkin. Ilmiy tadqiqotimizning tahliliy ma'lumotlari va soha mutaxassisleri ma'lumotlariga ko'ra imkon qadar tezroq yadro, vodorod va boshqa muqobil "yashil" texnologiyalardan foydalanishga o'tishni tavsiya qilmoqda.

Ushbu yilgacha har yili o'rta hisobda **900-950 ming** go'dak dunyoga keladi. 3-6 yosh oralig'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi 90 foizga etishi kutilyapti va buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida **1 mln 264 ming** nafar bola uchun yangi o'rinlar tashkil etish zarur. Prognozlarga ko'ra, 2035 yilga borib, 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 9 mln 737,4 ming nafarni tashkil etadi. Bu esa yuqorida aytib o'tkanimizdek, maktablarda qo'shimcha **8,2 million** o'quvchi o'rnini yaratishni talab qiladi. 2035 yilga borib, ambulator-poliklinikalar sonini 8450 birlikka (2022 yil boshida 6676 ta) etkazish zarur.

Shuningdek, 2035 yilgacha bo'lgan davrda aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi har yili 5-5,3 foizga oshishi hisobga olinsa, aholi va umuman iqtisodiyotning o'sib borayotgan talabini qondirish uchun 2030 yilgacha energiya quvvatini mavjud darajaga nisbatan kamida 1,7 barobar oshirish talab qilinadi. Talabning taxminan 8-10 foizini tashkil etadigan mavjud taqchillik to'ldirilishi bilan o'sib borayotgan aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi 2035 yilgacha bo'lgan davrda taxminan 6,2-6,5 foizga o'sadi.

O'zbekistonda oxirgi 5 yilda tug'ilishning keskin o'sishi kuzatilgan. **Bunga** sabablar sifatida aholi daromadlarining oshishi, ko'p farzandlilik tendensiyasiga ijobiy qarashlarning shakllanishi va tibbiy madaniyatning etarli darajada emasligini ko'rsatish mumkin.

Dunyoda global muammoga aylanib borayotgan aholining keksayish jarayoni tobora ko'proq mamlakatlarni qamrab olayotgan bir paytda O'zbekistonning demografik holatida keskin yosharish jarayoni kuzatilmoqda. Qayd etilishicha, oxirgi besh yilda tug'ilishning keskin ortishi mamlakat demografik dividend bo'sag'asida turganligidan darak beradi.

Mazkur holatda, demografik dividend va demografik soliq tushunchalari hayotimizda uchraydi. Demografik dividend-bu mamlakatda mehnatga layoqatli aholining ulushi bolalar va qariyalar ulushidan oshib ketganda va tug'ilishning pasayishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy o'sish salohiyati. Demografik soliq-mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining qisqarishi bilan birgalikda keksalar sonining o'sishi davridir.

Prognozlarga asosan, jahonda soliq davrining boshlanishi 2045 yilga (35 bola) to'g'ri keladi. Ba'zi mintaqalarda esa u boshlanib bo'lgan. Masalan, Yevropa mamlakatlarida 1995 yilda (31 bola), Shimoliy Amerikada 2015 yilda (32 bola), Rossiyada 2000 yilda (29 bola) boshlangan. Osiyo (32 bola) va Lotin Amerikasida 2040 yildan (33 bola) boshlanishi kutilmoqda. Prognozlar shuni ko'rsatadiki, 2030

yilgacha O‘zbekistonda demografik soliq davrining boshlanish xavfi yo‘q. Hisob-kitoblarga asosan O‘zbekistonda demografik bosim 2000 yillarda 92,2 kishini tashkil qilgan (bolalar bosimi-78,1, keksalarniki-14,2). Bosim 2013 yilga kelib eng quyi ko‘rsatkich, ya‘ni-62,0 ga pasaydi va 2022 yilga kelib 75,8 kishiga ko‘tarildi. 2030 yilga borib, respublikada bosimning mo‘‘tadil o‘‘sishi (84,2 kishi) kutilmoqda (bolalar bosimi-59,7, keksalarniki-24,4). Demografik dividenddan samarali foydalanish inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni talab etadi [3].

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda har 10 000 kishiga taxminan 16 nafar shifokor va 38 nafar hamshira (shu jumladan, ko‘pchilik mamlakatlardagi doylar) to‘g‘ri keladi. Masalan, Yevropa mintaqasi mamlakatlarida har 10 ming kishiga o‘rtacha 34 nafar shifokor to‘g‘ri keladi, Amerikada-24, G‘arbiy Tinch okeani mintaqasida-19, Sharqiy O‘rtaer dengizida-10, Janubi-Sharqiy Osiyoda-8, **O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 27 nafarni tashkil etadi.**

Agar Yevropa va Amerika mamlakatlarida har 10 000 kishiga 80 nafardan ortiq (81 va 83) hamshira to‘g‘ri kelsa, **O‘zbekistonda 10 000 kishiga 107 nafar hamshira to‘g‘ri keladi.** O‘zbekistonda shifokor va hamshiralar soni rivojlangan davlatlardagidan farq qilmaydi. Hududlar bo‘yicha hamshiralar soni bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlar Surxondaryo (15,0 nafar), Jizzax (16 nafar) va Qashqadaryo (18 nafar) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Prognozlarga ko‘ra, aholining yillik o‘rtacha o‘‘sishi 720 ming kishini tashkil etadi. Bu o‘‘sish sur‘atida ham shifokorlar va hamshiralar zimmasiga tushadigan yuk katta bo‘lmaydi. Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga borib, 10 ming kishining shifokorlar bilan ta‘minlanish darjasi 29,4 nafarni, tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlanish darjasi 117,8 nafarni tashkil etadi. Jumladan, oliy o‘quv yurtlari har yili 4 ming nafardan ortiq kishini mehnat bozoriga chiqarayotgan bo‘lsa, kollejlarda 55 mingdan ortiq tibbiyot xodimini tayyorlayapti. Har yili o‘rtacha 40 mingga yaqin xodim mehnat faoliyatini to‘xtatadi va 60 ming nafardan ortig‘i ishga olinadi [4].

Sog‘liqni saqlash sohasida band bo‘lganlar sonining real o‘‘sishi 20 ming kishidan ortiqni tashkil etadi. Oliy ta‘limni qamrab olishni oshirish, kvotalarni kengaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar oliy ma‘lumotli shifokorlar sonining ko‘payishini ta‘minlaydi. Bu esa o‘z navbatida aholining shifokorlar va tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlanish darjasini oshiradi.

Aholi sonining oshishi birinchi navbatda sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimiga bosim o‘tkazadi. 2030 yilga borib, 3–6 yosh oralig‘idagi barcha bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish natijasida 28 000 ta ish o‘rni tashkil etish mumkin. 2026 yilda 7–17 yosh oralig‘idagi bolalar soni 7 mln 642 ming 700 nafarni, 2030 yilda esa 8 mln 660 ming 800 nafarni tashkil etadi. 2030 yilgacha o‘rta ta‘lim bitiruvchilarining oliy ta‘lim bilan qamrovini 50% ga etkazish uchun jami qo‘shimcha 646,8 ming talabani o‘qitish zarur. 2030 yilda o‘rta ta‘lim bitiruvchilarni 50% oliy ta‘lim bilan qamrab olish uchun OTM larning hozirgi quvvatini 8 yil ichida 1,5–1,8 marta oshirish zarur [5.6.].

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, demografik yukning ortib borishini hisobga olgan holda energetika tizimlarini boshqarish va rivojlantirish borasida mutlaqo yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Bunda real vaziyat hamda imkoniyatdan

kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlarning energetika sohasidagi integratsion salohiyatini jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Milliy energetika tizimini imkon qadar tezroq yadro, vodorod va boshqa muqobil “yashil” texnologiyalardan foydalanishga asoslangan yangi texnologik platforma parametrlariga integratsiyalashning kuchaytirish lozim. Uzoq muddatli istiqbolda aholini resurslar bilan barqaror ta’minlashning omili sifatida energetika, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni muvofiqlashtirgan holda, bosqichma-bosqich o‘tkazish tavsiya etiladi.

Bu esa qaysidir ma’noda yuqorida aytilganidek, demografik jarayonlarni uzluksiz nazorat qilishni dolzarb qilib qo‘yadi. Zero demografik jarayonlar har bir davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Bo‘riyeva M. P., O‘zbekistonda oila demografiyasi, T., 1997; Bo‘riyeva M. R., Demografiya asoslari, T., 2001; Borisov V. A., Demografiya, M., 1999.
2. O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston respublikasining demografik holati. 2023-yil yanvar-dekabr.
- 3.[A.S.Soliyev],N.K.Komilova,S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov., F.T.Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – T.:-Universitetl, 2019. -360 b.
4. Tojiyeva Zulxumor Nazarovna. Aholi geografiyasi/darslik/.-Toshkent.: «Innovatsiya-Ziyol, 2020, 298 bet.
- 5.Xidiraliyev K.E. Aholi va iqtisodiy geografiya asoslari.-Guliston.:2024,-293 bet.
- 6.Xidiraliyev K.E., Axunboboyev M.M.-Geografik tadqiqotlarda aholi muammolarini o‘rganishning dolzarbligi. Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 2024 yilning 18-19-oktyabr-239-b.